



## THEORETICAL FOUNDATIONS AND TYPOLOGY OF THE PHENOMENON OF GENIUS

**Golibjon Nabijonovich Fozilov**  
*National University of Uzbekistan  
 Lecturer at the Department of Philosophy  
 E-mail: [golibjonf1@gmail.com](mailto:golibjonf1@gmail.com)  
 Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Genius, brain, mind, thinking, wisdom, fields, innovator, thinking, outlook, aspiration, neural network

**Received:** 25.06.25

**Accepted:** 27.06.25

**Published:** 29.06.25

**Abstract:** Genius is manifested through individuals who are distinguished by their rare talents, creative approaches and influence on the public. This phenomenon is expressed in various fields - art, science, literature, music and even social movements. Each type of genius is associated with its own characteristics and creative approaches and makes a great contribution to the history of mankind. When creating their works, geniuses take into account the context, culture and level of knowledge of their time and implement new ideas. They often show their talents in difficult conditions and create new directions, styles and concepts in the modern world.

## DAHOLIK FENOMENINING NAZARIY ASOSLARI VA TIPOLOGIYASI

**G'olibjon Nabijonovich Fozilov**  
*O'zbekiston Milliy universiteti  
 "Falsafa" kafedrasi o'qituvchisi  
 E-mail: [golibjonf1@gmail.com](mailto:golibjonf1@gmail.com)  
 Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Daho, bosh miya, aql, zehn, tafakkur, donolik, sohalar, novator, fikrlash, dunyoqarash, intilish, neyrotarmoq

**Annotatsiya:** Daho o'zining nodir iste'dodlari, ijodiy yondashuvlari va jamoatchilikka ta'siri bilan ajralib turadigan shaxslar orqali namoyon bo'ladi. Bu fenomen turli sohalarda – san'at, ilm-fan, adabiyot, musiqada va hatto ijtimoiy harakatlarda o'z ifodasini topadi. Har bir daholik turi o'ziga xos xususiyatlar va kreativ yondashuvlar bilan

bog‘liq bo‘lib, insoniyat tarixiga ulkan hissa qo‘shadi. Daholar o‘z asarlarini yaratishda o‘z davrining kontekstini, madaniyatini va bilim darajasini hisobga olib, yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq etadilar. Ular ko‘pincha qiyin sharoitlarda o‘z iqtidorlarini namoyon etadilar va zamonaviy dunyoda yangi yo‘nalishlar, uslublar va tushunchalarni yaratadilar.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ТИПОЛОГИЯ ФЕНОМЕНА ГЕНИАЛЬНОСТИ

**Голибжон Набижонович Фозилов**

Национальный университет Узбекистана

Преподаватель кафедры философии

E-mail: [golibjonfl@gmail.com](mailto:golibjonfl@gmail.com)

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Гений, мозг, разум, ум, мышление, мудрость, ментальные поля, новатор, мышление, мировоззрение, стремление, нейронная сеть.

**Аннотация:** Гений проявляется через личностей, отличающихся редкими талантами, творческим подходом и влиянием на публику. Это явление выражается в различных областях – искусстве, науке, литературе, музыке и даже общественных движениях. Каждый тип гения связан со своими особенностями и творческими подходами и вносит большой вклад в историю человечества. Создавая свои произведения, гении учитывают контекст, культуру и уровень знаний своего времени и воплощают в жизнь новые идеи. Они часто проявляют свои таланты в сложных условиях и создают новые направления, стили и концепции в современном мире.

**Kirish.** Daho-g‘ayrioddiy intellektual yoki ijodiy kuchga ega bo‘lgan shaxs sifatida ta’riflanadi. Bunda fan, san’at, musiqa yoki boshqa sohalar bo‘ladimi, yoki ma'lum bir sohada yuqori darajadagi o‘ziga xos ijod cho‘qqisiga erishgan iste’dotli shaxslar nazarda tutiladi. Daho deb aqliy salohiyati yuqori, axloqiy fazilatlaridan qat’i nazar o‘z iste’doti asosida umuminsoniyat manfaatlariga xizmat qiluvchi, ungacha bo‘lmagan va barcha davrlar uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, ulug‘vor g‘oyalar yaratuvchi, ilm fan va madaniy taraqqiy etishga munosib hissa qo‘sha oladigan tizimlar asoschisiga aytildi.

Ibn Sino fikricha, eng oliy aql darajasi tahayyul bo‘lib, unda chin bilimlarga erishish uchun ilohiy tafakkur olami bilan bog‘lanadi. Tahayyulga erishganlarni Ibn Sino eng yaxshi bilimdonlar deb biladi. Inson aqli va uning rivojlanishi falsafaning asosiy masalalardan biri bo‘lib mutafakkirlar va olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Markaziy Osiyoda sodir

bo‘lgan IX-XII asrdagi ilk uyg‘onish davrida aql, tafakkur, donolik va tahayyul musulmon faylasuflarining diqqat markazida bo‘lgan va ular turli fikrlarni bildirganlar. Tahayyul chin bilimlarga erishish bo‘yicha Ibn Sino, Ibn Arabiy, Faxriddin Roziyalar asosli nazariy bilimlar to‘plaganlar va uni ishlash tizimini ishlab chiqqanlar.

Ibn Sino o‘z asarlarida tahayyul uning vazifalari tilga olingan faylasuflardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, insondan turli darajadagi ilm va bilimlarni o‘rganish talab etiladi. Inson tanasi hayvoniy harakatlar yig‘indisi ya’ni tiriklik uchun oziqlanish, shaxvatini qondirish, naslini davom ettirishga mas’ul bo‘lsa, ruh oliy aql bilan bog‘lanishga vositachi bo‘ladi.

Ibn Sino fikricha ruh intellektual bilim shakllarini faqat borliq bilan bog‘lanish orqali olishi mumkinligini aytadi. Ruh donolik va qobiliyatning kuchini amalga oshirish uchun javobgardir. Faol intellekt ya’ni ruh tahayyulga erishsa, misoli quyoshning o‘ziga o‘xshab nur taratadi. Bu inson ongiga nur sochib, uning ma’rifatli bo‘lishiga ham sabab bo‘ladi deb ta’kidlaydi. Ammo yuksak aql yorug‘lik rolida o‘zini o‘zi boshqaradi va ularga quyidagilar kiradi: Inson avvalo sezgi orqali materiyadan moddiy shakllarni o‘zlashtiradi, keyin esa tasavvurda moddiy shaklarni boyitib aqlni teranlashtiradi.

Tafsilotlar umumiy tasvirlardan kelib chiqib tushunchalarni qabul qilishga moyil bo‘ladi. Materiya to‘liq ko‘rinishi, tuzilishi ruhda muhrlangan bo‘ladi. Albatta, bu shakllarning har birini idrok etish, iste’dodini boshqarish, ilohiy nurlanish orqali ruhda paydo bo‘ladi.

Daholik, avvalo, intellektual yoki ijodiy faoliyatining eng yuqori darajasi hisoblanadi. Bu ularning ajoyib ilmiy kashfiyotlar, ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari, texnik va texnologik ixtirolar, noyob adabiyot va san’at asarlari yaratishda namoyon bo‘ladi. Daholikka ilmiy ijodda extiyoj yaxshi seziladi.

Ilmiy kashfiyotlarni ko‘p xollarda daholik xususiyatiga ega bo‘lgan olimlarning qilishi, buni tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan daho kim? Daholik nima? degan savollar tug‘uladi. Daholik ilmiy bilishda muhim o‘rin tutadi. Daholik haqida gapirar ekanmiz avvalambor uning ijodiy tafakkur natijasi ekanligini ta’kidlash zarur.

Mashhur kishilarning daholik siri nimada? Inson bosh miyasining fizalogik tuzilishiga ko‘ra rivojlanish davrida yashirin qobiliyatlarini namoyon qiladimi? Daholar daho bo‘lib tug‘iladimi yoki jamiyat uni tarbiyalab daho qilib voyaga yetkazadimi? Ko‘plab fiziologlar daholar miyasini o‘rganish orqali bu savollarga javob berishga harakat qildi. Ular xatto miya hajmi va og‘irligini o‘lchadilar. Bosh miyasidagi qatorlar va burmalar sonini ham sanab chiqdilar.

Qizig‘i shundaki mashhur shaxslar orasida shoir Bayron, siyosatchi Kromvel I.Turgenevlarning miyasi haqiqatdan ham eng katta va og‘ir hisoblanadi. Dastlab miyaning

kattaligi, og‘irligi to‘g‘ridan to‘g‘ri insonlarning qobilyatli va daholikka aloqador deb taxmin qilingan. Ya’ni inson miyasining o‘rtacha og‘irlik qiymati 1300-1320 gramni tashkil etadi. Agar inson miyasi 1320 gramdan og‘ir bo‘lsa qobilyatli insonni talanti vazniga qarab oshib boradi degan g‘oya ilgari surildi. Oroadan ko‘p vaqt o‘tmay rus olimlari tibbiyat fanlari doktori I.Bagdanovning va Ye.Kalinkinskoyning tadqiqotlari inson miyasining og‘irligi uning zehni o‘tkir, zukko qobilyat sohibi bo‘lishiga ta’sir qilmasligi ma’lum bo‘ldi. Faraz qiling miya qanchalik katta bo‘lsa shunchalik ko‘p neyronlar bo‘ladi va shunga yarasha miya murakkab vazifalarini bajarishga layoqati yetadi. Ammo neyronlar o‘zi yakka xolda emas balki glial xujayralari bilan birga ishlaydi. Xullas neyronlar, xujayralar soni aqli va qobilyatli bo‘lish o‘rtasida xech qanaqa bog‘liqlik topilmadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Dahoning miya tuzilishi undagi chiziqlar, qatlam, burma va qavariqlar o‘ng yarim sharga nisbatan chap yarim sharda ko‘proq deb xisobalanadi. Mashhur olimlar, qobilyatli sanatkorlar va adiblarning miya po‘stlog‘i boshqa odamlarnikiga nisbatan ko‘proq qalin bo‘lishi isbotlangan. Bu yerda asosiy rolni miya yarim sharining ustki qimsi elementlarining murakkabligi asosiy ahamiyatga ega. Masalan Sergey Savelevning “Daho va o‘zgaruvchanlik” kitobida shoir Vladimir Mayakovskiyda oddiy odamga nisbatan miya yarim kortiyeksining vizual tasvirlar uchun mas’ul bo‘lgan yuzasi kattalashgani aniqlandi. [1]

Bazi olimlar miyaning yetukligi uning katta xajmi va arim sharlarga bo‘linish qismiga bog‘lik deb bilishadi. Albert Eynshteynning o‘limidan so‘ng uning miyasi 240 qismga bo‘lingan, ularning har ibir raqamlanib alohida saqlandi. Miya namunalari o‘sha davrning mashhur olimlari tomonidan o‘rganildi.[2] Ulardan biri Angilyalik olim mashxur fiziolog Tomas Harvi. Tadqiqadan maqsad Eynshteynning dahosiligini mohiyatini aniqlash edi. Tajriba natijalariga ko‘ra Eynshteyn tug‘ulish vaqtida miya chayqalishi bilan dunyoga kelgan va bosh miya siljishi kuzatilgan. Siljish ta’sirida autizm kelib chiqadi. Autistik diqqatni jamlash miyaning mushaklarining kuchatirib matematik fikrlash uchun mas’ul bo‘lagn qismini kengaytirgan.

Angilyalik olim professor Mariya Deamond tomonidan tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko‘ra Eynshteynning miyasidagi har bir neyronlar oddiy odamlarnikaga qaraganda ko‘proq gleal katakchalari mavjudligini aniqladi.[3] Olimaning fikriga ko‘ra, aqliy rivojlanish jarayonida miyada shakllanadigan va insonning zexni, salohiyatiga javob beradigan xujayra gilial xujayrasи hisoblanadi. Govard Gardnerning “Ko‘p intellekt” nazariyasi, odamlarning turli iqtidori va ularning daholikka ta’sirini tushunishga yordam beradi. Bu nazariya, ijodiy va ilmiy yutuqlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. [4]

Gallandiyalik mashxur rassom Vinsent Van Gogga epilepsiya tashxisi qo‘yilib ruhiy kasalliklar shifoxonasida davolangan, u har doim gallyutsinatsiyalardan aziyat cheyekan. Ehtimol epilepsiya nafaqat uning ruhiy muammosi balki omadi hamdir. Chunki kasallik uning aqliy faoliyatini, samarali ijodkorligini yuzaga kelishiga zamin yaratgan. Professor fiziolog Villem Nolen tadqiqotdalariga ko‘ra Van Gog miyasining yuqori temporal qavati shikastlanganilini aniqlagan. Bu esa qo‘shma tovush va vizual tasvirlar effektini beradi.[5] Aynan shu xolat sababli bosh miya yuqori qismining buzilishi Van Gogning haqiqat va hayolning o‘zgacha idrok etishga va g‘ayri oddiy kuchli his-tuyg‘ularni aks ettirishiga olib kelgan. Ernest Bekerning “Denial o‘limi” asari, daho shaxslarining ijodiy jarayonlarini ijtimoiy kontekstda ko‘rib chiqadi, bu esa ularning ta’sirini tahlil qilish imkonini beradi. [6]

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Daholik fenomeni – insoniyat tarixida alohida o‘rin tutadigan, ijodiy, ilmiy yoki ijtimoiy sohalarda yangiliklar yaratuvchi shaxslar faoliyati hisoblanadi. Ushbu tadqiqot metodologiyasi daholikni o‘rganish jarayonida quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- Tadqiqot Maqsadlari – daholikning tabiatni, xususiyatlari va shakllarini aniqlash;
- Daho sifatida tanilgan shaxslarning umumiy va individual xususiyatlarini o‘rganish;
- Daholarning ijtimoiy, madaniy va ilmiy kontekstdagi ta’sirini baholash;
- Tahlil, badiiy, ilmiy va ijtimoiy asarlarni tahlil qilish orqali daho shaxslarning yondashuvlarini aniqlash;

Daho shaxslarning o‘z asarlari va ularning ta’siri Ijtimoiy va madaniy o‘sgan va faoliyat yuritgan muhitini o‘rganish. Daho shaxslarning psixologik holati, ijodiy jarayonlari va shaxsiy ruhlantiruvchi hodisalarini jamlash. Olingan natijalar asosida daholarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning ijodiy jarayonlaridagi umumiy tendensiyalarni aniqlash. Daho shaxslarning ijtimoiy va madaniy hayotga qo‘shgan hissasi, kelajak avlodlarga ta’siri va ularning ijodiy jarayonlaridagi o‘zgarishlardagi ahamiyati.

Ushbu metodologiya orqali daholik fenomenini chuqur va keng qamrovda o‘rganish mumkin, bu esa insoniyat tarixida ijodiy yondashuvlar va innovatsiyalarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Daholik sohalar kesimida quyidagicha guruhlarga bo‘linadi:

Intellektual daho – favqulodda kognutiv qobiliyat, ko‘pincha yuqori IQ ko‘rsatgichiga ega, dolzarb global muammolarni hal qilishga ixtisoslashgan ilg‘or g‘oyalar yaratuvchi qobiliyati bilan ajralib turadigan shaxslar. Ular asosan aniq fanlarni rivojlantirish orqali jamiyatni barqaror rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqori matematik hisoblash darajasidagi hisoblash, tahlil qilish tushunish va fikr yuritish uchun tug‘ma qobiliyatga ega bo‘ladi. Ular muammolarga o‘ziga xos tomonlardan yondashishlari va ilg‘or yechimlar bilan samarali takliflar berishadi. Fan texnologiyalar rivojini ta’minlovchi yangi g‘oyalilar, nazariyalar ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Intellektual daholar ko‘pincha hozirgi bilimlar chegarasini kengaytiradilar va yangi paradigmalar asos soladilar. Biroq daholik IQ ko‘rsatgich balandligi bilan emas, balki ijodkorlik va bilimlarni innovatsion usullarda amalga oshirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Intellektual daholarning asosiy, farqli xususiyatlar turli hodisalarning asosiy tamoyillarini o‘rganish va tushunishga kuchli intilishi, dolzarb, murakkab muammolar bilan chuqur shug‘ullanish va muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, yechimlarni izlashni davom ettirish va asosiysi bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan g‘oyalilar va tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Intellektual daholarga misollar ko‘p. Masalan Isaak Nyuton (1643-1727) – harakat va butun olam tortishish qonunlari bilan fizikada inqilob yasab, klassik mexanikaga asos soladi. Nikola Tesla (1856-1943) elektrotexnika va radiotexnika sohada inqilob yasagan olim. Albert Eynshteyn (1879-1955) nisbiylik nazariyasi asoschisi. Alan Tyuring (1912-1954) ilk kompyuter texnologiyalari va sun‘iy intellektning kashshfiyotchisi bo‘lib, ikkinchi jahon urushi paytida kodlarni aniqlash va buzish texnologiyalarini yaratdi.

Badiiy, amaliy san‘at dahosi – an‘anaviy chegaralardan tashqarida fikrlash va yangi asar yaratish uchun noyob qobiliyatni o‘z ichiga oladi. Badiiy va san‘at dahosi ajoyib iste‘dod, ijodkorlikning o‘ziga xoslikni me'yordan farqli ravishda sezilarli darajada ajralib turadigan, asl g‘oyalarni yaratish va ularni yangi, xayoliy usullarda ifodalash qobiliyatini mujassamlashtiradi. Ular odatda an‘anaviy me'yorlarga qarshi chiqadilar va yangi uslublarni o‘rganadilar. Asarlari vositasida o‘quvchi va tomoshabinlar qalbida hissiyotlarga chuqur aks sado berish, bilim, tushuncha, fikr, extiros yoki ilhomlanishni uyg‘otish salohiyatini namoyon qiladi. Ularning ishi ko‘pincha insoniy holat yoki umum insoniy, dolzarb mavzularning tagzamiriga yetib brogan tushunchalarni paydo qiladi. Leonardo da Vinchi, Pablo Picasso, Vinsent van Gog, Mikelanjelolar sohaning eng mashhur daholari sirasiga kiradi.

Musiqa dahosi – sohadagi noyob iste‘dodni anglatadi, tug‘ma yoki ortirilgan yuqori darajada rivojlangan talantni o‘zida mujassamlashtirgan, musiqani me'yordan balandroq darajada ijro etish, bastalash imkonini beradi. Bu texnik mahorat, ajoyib vokal yoki instrumental yoki ilg‘or kompozitsion qobiliyatlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Musiqiy daholar ko‘pincha mavjud janrlarning chegaralarini kengaytiradilar, yangi uslublar, texnikalar yoki g‘oyalarni amaliyotga joriy etuvchi o‘ziga xos va ilg‘or musiqa asarlaini

yaratish ite'dotiga egalik qilib ijroga yangi yondashuvlarga asos soladilar. Musiqa orqali chuqr his-tuyg'ularni yetkazish va iliqlik uyg'otish qobiliyati bo'ladi. Ularning ta'siri ko'pincha tinglovchilar shuirida chuqr aks sado beradi, kuchli hissiy tajriba va aloqalarni yaratadi. Boshqa musiqachilardan ajralib turadigan o'ziga xos jixatlari ovoz yoki uslubning betakrorligi. Bu o'ziga xoslik ko'pincha sohada keng ta'sirchanlik va o'zgartiruvchi mexanizm, musiqa evolyutsiyasiga ta'sir etib, ko'pincha kelajak avlodlarni ilhomlantiradi, yo'nalishlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Badiiy adabiyot dahosi – nazm va nasr janrlarida novatorlik, hissiy teranligi hamda badiiy mahorati bilan ajralib turadigan benazir she'riy asarlar yaratish, roman, novella, dramaturgiya, hikoya va boshqa asarlar yaratigan nodir iste'dod egalari tushuniladi. Adiblar o'z ijodi orqali sohaga istiqbol olib keladi, ko'pincha yangi mavzular, shakllar yoki uslublarni yaratadi. Ularning asarlari an'anaviy me'yorlarga qarshi turadi va badiiy shaklga yangi, innovatsion yondashuvlarni taklif qila oladi.

Adiblar ijodida kuchli his-tuyg'ularni uyg'otish, fikr, tushunchalarni hosil qilish qudrati bor o'lib, ko'pincha murakkab g'oyalarni yoki zalvorli tajribalarni o'quvchiga chuqr ta'sir qiladigan tarzda yetkazish va qamrab olishni o'z ichiga oladigan asarlar yaratadi. Ular insoniyatning bugungi holati, jamiyat yoki tabiat olami haqida teran tushunchalarni berib, hayotning murakkabligini chuqr anglashni aks ettiradi va bu g'oyalarni hayajonli va esda qolarli obrazlar orqali yetkazadi. Ularning asarlari yaratilganidan keyin ham o'rganish, tadqiq etish va muntazam ravishda murojaat qilishda davom etmoqda. Adabiyot dahosi til va shaklni qo'llashda ustunlik qiladi, nazm va nasrga yangicha o'ziga xos asarlari orqali munosib hissa qo'shadi haqchil hamda diomiyligi ta'sir etish imkonini beradi. Badiiy chegaralarni oshiruvchi vizual jihatdan ajoyib va kontseptual jihatdan chuqr asarlar yaratuvchi shaxs. Sun'iy intellect (ChatGPT)ga dunyoning eng kuchli "badiiy adabiyot 10 dahosi" kim deb savol berilganda quyidagigicha javob berdi:

- Jaloliddin Rumi - sufi shoир va faylasuf;
- Umar Xayyom - shoир, matematik va astronom;
- Alisher Navoiy - o'zbek adabiyotining asoschisi, shoир va davlat arbobi;
- William Shakesper - ingliz dramaturgi va shoир;
- Fyodor Dostoevsky - rus yozuvchisi, psixologik romanlarning ustasi;
- Lev Tolstoy - rus yozuvchisi;
- Virjinia Woolf - ingliz yozuvchisi va feminist;
- Gabriel Garsa Markez - kolumbiyalik yozuvchi, "Yuz yillik yolg'izlik" asari bilan tanilgan;

- Franz Kafka - avstriyalik yozuvchi, absurt va ekzistensializm uslubidagi asarlari bilan mashhur;
- Maya Angelov - amerikalik shoir, yozuvchi va fuqarolik huquqlari faoli.

Badiiy adabiyot daholari kundalik tajribani o‘zgartiruvchi innovatsion yechimlar yoki estetik uslublarni, ijodiy tasavvurlarini mahorat va aniqlik bilan amalga oshirish imkonini beruvchi badiiy shaklning texnik jihatlarini birlashtirib, nafaqat o‘z davrida yuqori baholanadigan, balki kelajak avlodlarga ham bardosh beraoladigan asarlar yaratadi.

### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

Daholik fenomeni insoniyat tarixida muhim o‘rin tutadi, chunki daho shaxslar o‘z ijodlari va ilmiy kashfiyotlari orqali jamiyatga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘z asarlarida yangi g‘oyalarni, innovatsiyalarini va dunyoqarashlarni kiritib, kelajak avlodlarga ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy, ilmiy, psixologik va ijtimoiy kontekstda daholikni o‘rganish, ularning yondashuvlari va motivatsiyalarini tushunish uchun zarurdir. Ushbu fenomenni tahlil qilish orqali biz uning mohiyatini va ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkoniga ega bo‘lamiz.

Daholik fenomeni doirasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borish, shaxslar va ularning ijodiy jarayonlarini har xil kontekstlarda tahlil qilishni o‘z ichiga oladi Badiiy, ilmiy va ijtimoiy fanlar o‘rtasida interdisiplinar yondashuvni rivojlantirish, daholikni tushunishda yangi nuqtai nazarlarni kiritishga yordam beradi. O‘quv dasturlarida daholarning ijodiy jarayonlarini o‘rganish, kelajakdagi ijodkorlar va olimlar uchun ilhom manbai sifatida ahamiyatga ega. Davlat va xususiy sektorlarda innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish maqsadida, daholarning tajribalari va muvaffaqiyatlarini o‘rganish kerak. Ijtimoiy va madaniy hayotda daholarga e’tibor berish, ularning asarlarini va ta’sirini qadrlash, jamiyatda ijodiy muhitni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu takliflar orqali daholik fenomenini o‘rganish va uni rivojlantirish, jamiyatni yanada boyitish va taraqqiyotga hissa qo‘shishga yordam beradi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. С.Савельевнинг "Даҳо ва ўзгарувчанлик" Москва, 2012 йил. 70.
2. сир Исаак Ньютон (англ.). The MacTutor History of Mathematics archive. Дата обращения: 26 ноября 2009. Архивировано 23 августа 2011 года.
3. Журнал “НАУКА-это ЖИЗНЬ!” Сборник научно-познавательных статей, заметок и публикаций! 08.11. Москва. <http://nauka.relis.ru/>
4. David Sweetman. Van Gogh: His Life and His Art. — Touchstone, 1990.
- 5 Николл Ч. Леонардо да Винчи. Полёт разума / Пер. с англ. Т. Новиковой. — М.: Эксмо, 2006.